



**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SAMARQAND
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

**2022- YIL YANVAR-SENTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalaridan 20 382,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,6 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 8,7 %, o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 20,2 % ga , Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi - 22,3 % ga hamda Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 11,2 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 248,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-Sentabr

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-Sentabr

FHI,% da



2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19 494,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,6 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-sentabr


95,4 %

2022-yil yanvar-sentabr

95,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2021-yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,7 % (16,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,0 % (16,2 %) va quyi texnologiyalisi – 59,3 % (61,8 %)ni tashkil etdi.


■ 2021-yil ■ 2022-yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,3 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 101,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 12,0 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 143,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,5 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 85,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,6 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 112,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,3 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 116,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Aroq




O'simlik yog'i (tozalangan)




Paxta tolasi




Tamaki



Pivo



Yumshoq bug'doy va spelta uni




2022- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 53,9 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 23,0 % ga pasaygan), 125,8 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (3,6 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘shish, % da
Paxta tolasi, ming tonna.	28,2	29,4	104,2
Pivo, ming litr	24189,0	23985,0	99,2
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna	130,2	125,8	96,6
Tozalangan paxta yog‘i tonna	10676	11440	107,2
Konyak spirti – litr 100 % spirt	573,9	251,0	43,7
Tamaki, mln dona	6036,0	6750,2	111,8
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka), tonna.	407,8	452,5	111,0
Paxta tiviti tonna	3399,3	3571,2	105,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 7,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 191,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 12,0 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 143,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 2 331,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 90,6 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 427,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 5 435,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 111,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 81,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 461,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 141,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 %, fizik hajm indeksi 100,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 553,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 34,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 85,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 195,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 501,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 120,2 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	324350,7	381809,9	57459,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	4371495	4444814	73319

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 137,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	30 198,6	28 631,9	-1 566,7
Plastmassa chiqindilari, tonna	337,4	661,4	324,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	76,0	77,0	1,0

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 101,3 % ni va O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 5,2 (%) ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 12 635,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 124,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 62,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-sentabr

38,5%

2022- yil
yanvar-sentabr

36,6%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-sentabr

61,5%

2022- yil
yanvar-sentabr

63,4%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,3 % (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 1,4 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 39,5 % ni, Tayloq tumani 11,1 % ni, Urgut tumani 10,6 % ni, Samarqand tumani 9,0 % ni, hamda Jomboy tumani 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (124,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumanida (170,5 %) hamda Tayloq tumanida (190,4 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 39,5 % shuningdek, Tayloq 11,1 %, Urgut 10,6 % ni, Samarqand tumanlarida 9,0 % ni tashkil etdi.



7 894,2 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-sentabr

9 714,8 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-sentabr

12 635,4 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

108,2%

2021- yil

109,0%

2022 yil

124,8 %

Yanvar - Sentabr

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 43,4 % shuningdek, tumanlardan Urgut 14,7 %, Tayloq 10,9 % ni, hamda Samarqand tumani 5,1 % ni tashkil etdi.

4 816,2 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-sentabr

5 974,1 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-sentabr

8 014,9 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi





o'sish sur'ati


mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 16,1 % ni, Jomboy tumani 15,4 % ni, Tayloq tumani esa 11,3 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 46,9 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 10,0 % ni, Urgut tumani esa 7,5 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati

2020- yil

12 231,8 mlrd. so'm

2021 yil

15 581,9 mlrd. so'm

2022- yil

20 382,3 mlrd. so'm



2020- yil

94,7 %

2021- yil

109,3 %

2022- yil

108,8 %

Kattaqo'rg'on sh.

102,2

310,3

Samarqand sh.

110,6

9 567,6

Toyloq

119,4

1 613,2

Urgut

106,3

1 523,1

Nurobod

122,2

304,9

Samarqand

102,2

1 408,0

Paxtachi

113,3

367,6

Pastdarg'om

110,8

731,1

Payariq

100,7

349,3

Narpay

104,2

492,8

Qo'shrabot

103,2

59,9

Kattaqo'rg'on

100,8

405,5

Ishtixon

102,6

369,3

Jomboy

104,6

2 046,4

Bulung'ur

112,3

445,9

Oqdaryo

100,5

387,4


FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 788,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,2 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (97,3 %), Oqdaryo tumanida (96,3 %), Kattaqoʻrgʻon tumanida (81,9 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Narpay tumanida (15,3 %), Paxtachi (30,6 %), Ishtixon (35,5 %), Tayloq (31,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 8 622 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 786 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,7 %) Samarqand shahriga, 1 254 tasi (14,5 %) Urgut tumaniga, 788 tasi (9,1 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil

1 238 dona

2021- yil

1 591 dona

2022- yil

1 295 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

6 739 dona

2021- yil

8 224 dona

2022- yil

8 622 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan